

TARBIYACHI NUTQIGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR

Usmanova Saodat Erkinovna

Ter.D.Pi.Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada nutq madaniyati o'qituvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarida to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim. Shundan kelib chiqqan holda nutq madaniyati: o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli sharoitlarda bayon eta olish vositalarini, ma'noni turli shakllarda bera olish yo'llarini, badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazani, shaxsiy munosabatni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish madaniyatini ifodalaydi.

Kalit so'zlari: Pedagogning imidji, nutq madaniyati, fiziologik nafas, fonasion nafasda ko'krak nafas, diafragmal nafas, diafragmal-qorin, diapazon, tembr, energetik tizim, rezonator tizim, anafora, Ritmik, gradatsiya, invetsiya, intinatsiya

Аннотация: В статье культура речи должна служить формированию и развитию навыков творчества, самостоятельного мышления, правильного и беглого выражения продукта творческой мысли в устной и письменной формах в соответствии с условиями речи, воспитанию языковой интуиции. Исходя из этого, культура речи: средства выражения своего мнения в разных условиях в соответствии с условиями речи, способы придания смысла в разных формах, изучение художественных, научных, общественных произведений, осмысление их, личное представляет собой культура умения правильно выражать свое отношение в устной и письменной формах.

Ключевые слова: образ учителя, культура речи, физиологическое дыхание, грудное дыхание при фонации, диафрагмальное дыхание, диафрагмально-брюшное, диапазон, тембр, энергетическая система, резонаторная система, анафора, ритмика, градация, инверсия, интонация.

Annotation: In the article, speech culture should serve to form and develop the skills of creativity, independent thinking, correct and fluent expression of the product of creative thought in oral and written forms in accordance with the conditions of speech, and education of language intuition. Based on this, the culture of speech: the means of expressing one's opinion in different conditions in accordance with the conditions of speech,

the ways of giving meaning in different forms, studying artistic, scientific, social works, thinking about them, personal represents the culture of being able to correctly express the attitude in oral and written forms.

Key words: *Teacher's image, speech culture, physiological breath, chest breath in phonation breath, diaphragmatic breath, diaphragmatic-abdomen, range, timbre, energetic system, resonator system, anaphora, rhythmic, gradation, inversion, intonation.*

Har bir insonning ma'naviy va madaniy kamolotga erishuvda tilning o'rni alohidadir. Til insonlararo muloqot hamda fikr va axborot almashinuv vositasidir.

Til millatning tamal toshidir. birinchi prezidentimiz I.Karimov «Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarran» deb ta'kidlaganida haqli edi. Shuningdek, ajdodlar merosini o'rganish, tajriba orttirish, almashinish jarayonini ham tilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, hazrati Navoiy ta'biri bilan aytganda:

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

Ma'lumki, til inson aqliy faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki, insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham tildir. Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari - tafakkur mevalari til va nutq orqali ro'yobga chiqadi. Til tafakkur mahsullarining hayotga tadbiiq etilishiga vosita bo'luvchi qudratli quroldir. O'zbek tilining izohli lug'atida "til – fikr ifodalash va o'zaro aloqa quroli bo'lib xizmat qiladigan tovushlar, so'zlar grammatik vositalar sistemasi" deb ta'riflansa, nutqqa "fikrni til orqali ifodalash qobiliyati, mahorati" yoki "so'zlashuv jarayonidagi til" deb ta'rif beriladi.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri «Qobusnoma»da ham til va nutqqa alohida e'tibor berilganki, ular hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'ramiz. Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari - notiqlikni a'lo deb biladi: «Bilginki, hamma hunardan so'z hunari yaxshi». Shuning uchun ham kishi suxandon va notiq bo'lishini ta'kidlaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo'lini tinimsiz mehnat va o'rganish deb uqtiradi.

Tilning olijanob imkoniyatlari nutq orqali ochiladi. Nutq bo'lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. A. Navoiy til va

nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq nomaqbul bo'lib chiqsa, tilning ofatidin». Demak, til har qancha qudratli zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qiladi. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog'liq.

Til millatning noyob xazinasi bo'lib, doimo og'zaki va yozma holda namoyon bo'lgan. Boy, yorqin, maroqli nutq, u kim bo'lishidan qat'iy nazar, inson nuri hisoblangan.

Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo'lib, u bolaning kundalik oddiy salom-aligidan tortib, kimga nimani, qachon, qaerda va qanday so'zlashigacha bo'lgan barcha nutqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Nutq madaniyati faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalaydi. Nutq madaniyati o'qituvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarida to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim. Shundan kelib chiqqan holda nutq madaniyati: o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli sharoitlarda bayon eta olish vositalarini, ma'noni turli shakllarda bera olish yo'llarini, badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazani, shaxsiy munosabatni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish madaniyatini ifodalaydi.

Har qanday pedagogik vaziyat uchun mutlaqo to'g'ri bo'lgan nutqni tuzish mumkin emas. Faqat ayni vaziyat talablaridan kelib chiqib tashkil etiladigan nutqgina to'g'ri hisoblanadi. Binobarin, kishi o'zining har bir qadamini oldindin ko'rishi, rejalashtirishi amalda mumkin bo'lmaydi. Pedagogning mehnati - bu behad izlanish va azob-uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror turlanish oni, ko'pdan-ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va bolalar bilan birgayani, ya'ni inson organizmining hayotiy funksiyasini amalga oshiradi. Shuningdek, u nutq jarayonini energiya bilan ta'minlaydi. Demak, inson ikki turda nafas oladi: fiziologik va fonasion nafas.

Fiziologik nafasda havo burun orqali olinib, nafas olish va nafas chiqarish teng hamda bir tekisda bo'ladi. U quyidagi ketma-ketlikda sodir bo'ladi: qisqa nafas olish, qisqa nafas chiqarish va pauza.

Fonasion nafas shakllanmagan bo'lsa nutq jarayonida hapqirib qolish, yurak urishi tezlashishi, yuz qizarib ketishi kabi holatlar kuzatiladi.

Nafas olish jarayonida ishtirok etadigan muskullar ishtirokiga qarab nafasni to'rt turga ajratiladi.

Yuqori nafas - yelka, ko'krak qafasi va o'pkaning yuqori qismi ishtirokida amalga oshiriladigan engil nafas turidir.

Ko'krak nafas – qovurg'a muskullari ishtirokida sodir bo'lib, ko'krak qafasini aylanasi o'zgaradi. Bunda diafragma deyarli o'zgarmaydi.

Diafragmal nafas – ko'krak qafasi hajmining bo'ylamasiga o'zgarishi natijasida amalga oshadi.

Diafragmal-qorin nafas ko'krak qafasi muskullarining ko'ndalangiga hamda bo'ylamasiga o'zgarishi, qorin muskullarining o'zgarishi asosida hosil bo'ladi. Shu nafas fonasion nafas uchun eng qulayi hisoblanadi.

Nutq tovushlari cho'ziq nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Shu sababli fonasion nafas va tovush hosil qilish jarayonini takomillashtirishda diafragmal-qorin nafasni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish lozim.

O'qituvchining nafas olishini tartibga solish uchun juda ko'plab mashqlar belgilangan. Shulardan biri, yerga chalqancha yotgan holda burun orqali uzoq vaqt davom etadigan chuqur nafas olish yoki shu holatni tik turgan holda qaytarish nafas olish organlarining to'g'ri ishlashiga yordam beradi.

O'qituvchilar orasida tabiiy ravishda ijobiy ta'sir etadigan, jarangdor, yoqimli tovush egalari juda kam uchraydi. Yaxshi tovush yillar o'tishi bilan, maxsus mashqlar yordamida chiniqtirib borilmasa, o'zgarishi mumkin. Shuningdek, har bir insonning tovushi maxsus mashqlar asosida chiniqtirilsa kuchli, o'zgaruvchan va jarangdor bo'lishi mumkin.

Tovush apparatining tuzilishi bilan tanishib chiqamiz.

Tovush apparati 3 qismdan iborat: generator, rezonator, energiya tizimi.

Generator tizim – tovushni generatsiyalaydi, tovush paylarida va og'iz bo'shlig'ida sodir bo'ladi. Tovushlarni tonal va shovqin tovushlarga ajratadi.

Rezonator tizimga halqum, og'iz va burun bo'shlig'i kiradi. U nutq dinamikligini ta'minlaydi.

Energetik tizimga yuqori nafas yo'llari kirib, tovush hosil qilishda ishtirok etadigan havo oqimining tezligi va hajmini ta'minlaydi.

O'qituvchi tovushining muhim xususiyatlari

Tovush o'pkadan chiqayotgan havo oqimining tovush paylari tomonidan to'sib qolinishi natijasida hosil bo'ladi. Tovushning muhim jihatlari tovush apparatining qay darajada shakllanganligiga bog'liq. O'qituvchi tovushining muhim jihatlari quyidagilar kiradi:

1) Tovushni ma'lum masofaga etkazish va boshqarish.

2) Tovushning egiluvchanligi – nutq mazmuniga ko'ra o'zgartirish.

3) Tovushning balandligi – tovushning tonallik darajasi. Tovush harakati uning baland-pastligiga bog'liq. Odam ovozi osongina 2 oktava balandligida o'zgarib turishi mumkin, ammo kundalik nutqimizda 3-5 nota kuchida ovoz ishlatilishi mumkin.

4) Diapazon – ovoz ko'lami, kengligi. Inson imkoniyatlari darajasidagi, eng yuqori va eng quyi chegarasiga ega turli balandlikdagi tovushlar yig'indisi.

5) Tembr – har bir tovushning o'ziga xos bo'lgan sifati, tovush bezagi, uning mayinligi yoki yo'g'onligi, yorqinligi.

Har bir insonning tovush tembri rezonator tizim asosida o'zgarishi mumkin. Rezonator tizimning 2 turi farq qilinadi: yuqori (bosh) va quyi (ko'krak).

Yuqori yoki bosh rezonator tizimiga bosh miya, og'iz va burun bo'shlig'i kiradi. Quyi yoki ko'krak rezonator tizimiga traxeya va bronxlar kiradi. Rezonator tizim yordamida turli xildagi ton (tovush) va oberton (qo'shimcha tovush)lar hosil qilish mumkin.

6) Ritmika – tovush va so'zlarni talaffuz qilishdagi umumiy tezligi, davomiyligi, ovoz maromi yoki vazni. Ba'zi bir so'zlarning, bo'g'inlarning talaffuzi, ularning tezligi - nutqning sur'atini tashkil etadi.

7) Temporitm - so'zlar orasidagi tanaffuslardir.

8) Nutq tezligi o'qituvchining shaxsiy sifatlari, nutq mazmuni, muloqot qilish vaziyatiga, har bir o'qituvchining fazilati nutq mazmuni va muomala vaziyatiga bog'liq.

beradi.

Diksiya. Diksiya – tovush va so'zlarni aniq, tushunarli talaffuz qilish, ya'ni tovush hosil qilishda lab, til, jag', yumshoq va qattiq tanglay, tilcha, halqum, tovush paylari ishtirok etadi. Agarda ulardan birortasining faoliyati buzilsa diksiya buziladi.

Diksiya-talaffuz tarzi, talaffuzni aniq ravshanligi darajasi. O'qituvchi uchun to'g'ri talaffuz - eng kerakli qurol xisoblanadi, chunki o'quvchilar tushinishi uchun nutqi, talaffuzi ravon, har bir bo'g'in, so'z va tovushlarni aniq aytishi kerak.

Pauza, temp va nutqning yoqimli bo'lishi nutq ohangini tashkil etadi.

Bir ohangdagi nutq zerikarli bo'lib, qiziqish va diqqatni pasaytiradi.

Demak, nutq texnikasi haqidagi tushunchaga ega bo'lgach endi doimiy mashq qilishga o'tish kerak. Nafas olishni bir maromga keltirish, talaffuzniig aniq-ravshanligi darajasini mashq qilish, tovush organlarinn mustahkamlash kerak.

O'quvchilar tomonidan o'quv materialini to'g'ri yaxshi tushunib olish jarayoni o'qituvchi nutqining mukammalligiga bog'liqdir. Odatda o'quvchilar muallimning so'zlasha olish mahorati, qobiliyatini qay darajada ekanligiga tez e'tibor beradilar. Muallim tomonidan ba'zi bir so'zlarni, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilinsa o'quvchilar orasida kulgiga, mazax qilishga olib keladi.

Shuningdek, bir ohangdagi nutq o'quvchilarni zeriktiradi, aksincha ochiq ko'ngil bilan o'tkazilgan suhbat davomida ko'tarinki ruhdagi nutq ohangi, ya'ni katta shavq-zavq bilan olib boriladigan bunday suhbat o'quvchilarga qalbakidek tuyuladi va o'qituvchiga nisbatan ishonchsizlik uyg'otadi. Ba'zi birlar, tovush va uning o'ziga xosligi ham insonga in'om etilgan tug'ma xususiyat deb hisoblaydilar. Lekin zamonaviy fiziologik ilmiy tajriba, ovoz sifatini tubdan o'zgartirish mumkin ekanligini tasdiqlaydi. Bu fikrni tarixiy misollar ham tasdiqlashi mumkin. Masalan, Qadimgi Gresiyalik Demosfen o'zidagi ba'zi bir nuqsonlarni yengib, buyuk notiq bo'lib yetishgan. Bu borada biz hikmatli so'zlarni misol qilsak bo'ladi:

Mashaqqatsiz qo'lga kirmas hech istak,
Imillagan misoli bekordir.

Tani guldek nozik o'sha teng badandan
Dag'al hammol yaxshiroq ming bordir. Xisrav Dehlaviy

O'qituvchi nutqining badiiy nutq me'yorlariga mosligi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bu nutq ta'sirchanligini oshirishning muhim sharti emas. O'qituvchi nutqining to'g'ri va aniq bo'lishi bilan birga uning obrazli va ifodali bo'lishi ham muhimdir. Nutq ta'sirchanligini oshirishda maqollardan, frazeologizmlardan, iboralardan ham foydalanish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Усманова С.Э. Triz technologies as a means of developing the grammatical structure of speech in older preschoolers. Indiya. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 04, April 2022. 176-182

2.Усманова С.Э. Сюжетное конструирование как средство развития творческих способностей детей. [HTTP:// INTERNATIONAL CONFERENCE.RU LONDON](http://INTERNATIONAL_CONFERENCE.RU_LONDON). 29 августа 2022 г. Журнал инноваций, реформ и развития Spectrum, 6, 72-75.

3.Усманова С.Э. Возможности использования мультимедийных компьютерных программ в развитии детей дошкольного возраста <http://www:sjird.journalspark.org> Germaniya.

4. Mamatmo'minova. M.G. Teacher of preschool education organization creative competence improvement In Volume 06 of Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, Aug.-2022.

5. ГМ Алтибаева. Особенности организации взаимодействия дошкольного образовательного учреждения семьями воспитанников. Вестник современной науки 19-22

6.G Altibaeva .Processes Of Formation intellectual Abilities of Preschool Teachers Through innovative Technologies.Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 3 18-21

7.K.A. Xamrayevna. To The Question on Neuropedagogic Possibilities of Formation of Creative Activity at Children of the Senior Preschool Age // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). - General Rublik licens. – Spanish, 2019. - Vol. 16. - N 2. - 2019, - P. 265-267.

8. Г.У Холбоева, Р.Ж Окбоева. Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста.- Евразийский научный журнал, 2018

9. Г.У Холбоева - Болалариини мактаб таълимига психологик тайёргарлиги. Новости образования: исследование в XXI веке, 2022

10.K.X. Аллабердиева. Ижодий фаолликни шакллантиришга йўналтирилган интегратсиялашган таълим // Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5), 419-423

11. Abdumajitova S. A. PRIORITY OF THE PERSON-CENTERED EDUCATIONAL MODEL IN PRESCHOOL EDUCATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 53-57.

12. Abduqasimovna, A. S. (2022). DIFFERENT VIEWS OF EASTERN THINKERS AND PEDAGOGUES-SCIENTISTS ABOUT THE CHILD AND HIS EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 348-352.

13. Abduqasimovna, A. S. (2022). ATTENTION TO THE EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE AND REFORMS IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 342-347.

14. Абдумажитова, С. А. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ У ДЕТЕЙ ЧУВСТВА ВРЕМЕНИ КАК ЭСТЕТИЧЕСКОГО ФЕНОМЕНА В ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3), 81-83.

15. Abduqasimovna, A. S. (2022). <https://doi.org/10.5281/zenodo.6508403>. Results of National Scientific Research International Journal, 1(1), 265-269.